

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Xolikulov A. B.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası professori, DSc

O‘zbekiston Milliy universiteti

a.kholikulov@nuu.uz

BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro amirligining Qo‘qon xonligi bilan elchilik aloqalari, ular o‘rtasidagi ziddiyatlar, Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi yillaridagi Buxoro – Qo‘qon munosabatlari, O‘ratepa masalasi, Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligiga qilgan yurishlari, ushbu yurishning kelib chiqishi sabablari, urushga turtki bo‘lgan bahonalar kabi masalalar manbalar va mahalliy va xorijiy tarixchilar asarlari orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi, elchilik munosabatlari, Amir Shohmurod, Amir Haydar, Amir Nasrullo, Erdonabiy, Norbo‘tabiy, Olimxon, Umarxon.

KIRISH

XVIII asrning boshlarida Farg‘ona vodiysida mahalliy aholi vakillaridan bo‘lgan ming urug‘i yangi davlat – Qo‘qon xonligiga asos soladi. Ushbu davlat XVIII asr ikkinchi yarmida Erdonabiy (1751–1769) va Norbo‘tabiy (1770–1798) hukmronligi yillarida Farg‘ona o‘z hududlarini kengaytirish va mustaqilligini mustahkamlashga erishadi. Qo‘qon xonligining Buxoroga yuborgan elchilari haqidagi ma‘lumotlar tarixiy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan [1]. Qo‘qon xoni Erdonabiy (Abd al-Qayumxon) xonligi davrida mamlakat Chin davlati bilan muzokaralar olib borib, Xitoyning Qo‘qon xonligi va Qo‘qon xonligining Sharqiy Turkiston – Qoshg‘ar ishlariga aralashmasligi borasida shartnoma tuzilishi natijasida ancha muddat tinchlik o‘rnatildi [2]. U Isfara va Xo‘jandni o‘z mulklariga qayta qo‘shib olib, 1754-yilning iyun-iyul oylarida Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy bilan birgalikda O‘ratepaga yuz urug‘i vakili Fozilbiy ustiga yurish qiladi [3]. Ular Zomin mavzesida bir-biri bilan uchrashdilar va birgalashib O‘ratepa qamaliga kirishdilar. Ammo bir necha kun o‘tgach, Muhammadaminbiy qutqusiga uchib, har ikkalasi ham o‘z Vatanlari sari qaytib ketdilar [4]. Ya’ni Hisor hukmdori Muhammadaminbiy yuzning aralashuvi bois bu yurish mag‘lubiyat bilan tugaydi.

Norbo‘tabiy (1770–1798) hukmronligi yillarida Qo‘qon xonligi mustaqil, kuchli davlatga aylanadi. Hatto uni Xitoy tan oladi. Bu davridagi siyosiy barqarorlik mamlakat iqtisodining o‘sishiga olib keladi. U O‘ratepa hokim Xudoyorbiy bilan tinchlik shartnomasini tuzadi. Ko‘p o‘tmasdan Xudoyorbiy vafot etib, o‘rniga Bobobek Devonbegi (Xudoyorbiyning kichik ukasi) tayinlanadi. Bu voqea Amir Shohmurodning O‘ratepaga (Xudoyorbiy amirlikning vassali

hisoblangan) yurish boshlashiga turtki bo'ladi. O'z navbatida Norbo'tabiy ham Xo'jandga yurish qilib, Amir Shohmurodga O'ratepaga yurishni to'xtatishini va u yerda Buxoroning vassalligi saqlanib qolishini iltimos qilib elchi jo'natadi [5].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Xudoyorxonzoda o'zining "Anjum at-tavorix" asarida bu voqeani mutlaqo boshqacha talqin qilinadi. Uning aytishicha, Amir Shohmurod O'ratepani bosib olishga muyassar bo'lmasligini tushunib yetib, Farg'onaga Musaxon Dahbediyni elchi qilib jo'natadi [6]. Norbo'tabiy shayxni hurmat bilan kutib olib, unga qimmatbaho sarpolar kiygazadi va ikki o'rtada tinchlik shartnomasi tuziladi. Unga qo'shib javob elchiligi sifatida Farg'ona tarafdan Hakimxon Xo'ja boshchiligidagi missiya jo'natiladi. Amir Shohmurod ham tinchlik shartlarini qabul qilib, hatto, O'ratepa atrofidagi Zominni qaytarib beradi [7].

Qo'qon xonligining g'arbida joylashgan yuz urug'lari XIX asrning boshlarida kuchayib ketadi. Natijada Buxoro va Qo'qon xonliklarining hududi geografik jihatdan qisqara boshlaydi [8]. 1797 va 1803-yillar orasida ular ikki marta Buxoro qo'shinlarining hujumiga uchraydi [9].

1805-yili yetti yillik harakatlardan so'ng Olimxon Xo'jandni, 1806-yili esa O'ratepani zabt qilib, o'z tasarrufi doirasiga kiritdi [10]. Qamaldan so'ng u yerda joylashgan Buxoro qo'shini taslim bo'lib, mang'it amirlaridan shu viloyat hokimi mullo Ernazarbiy va uning o'g'li Pirnazarbiy, Bekmurod parvonachi, Hakim qushbegining ukasi Qobilbiy inoq kabilar asirga olinadilar. Keyin qo'qonliklar Jizzaxga muvaffaqiyatsiz yurish qildilar [11]. Lekin ko'p o'tmay O'ratepa mustaqillikni qo'lga kiritib, u yerda Mahmudxo'ja hokim bo'ladi. Qo'qonliklarning faolligi ularning yana buxoroliklar bilan to'qnashuviga olib keladi. O'ratepada Amir Haydar va uning tarafdori toshkentliklar va Olimxonning Qoshg'ar va Sayram ittifoqchiligidagi qo'shinlari o'rtasida katta jang bo'lib o'tdi. Amir Haydarning ittifoqchilaridan Turkistondagi qozoq sultonlarining vaqtida yetib kelishi natijasida pistirmada turgan o'n ming kishilik sayramliklar mag'lub bo'lib, Qo'qon qo'shinlari qochib ketadi [12].

Olimxon Buxoro qo'shinidan yengilib, siyosatini o'zgartiradi. Endi u Toshkentga yurish qilishga qaror qiladi va 1809-yili bu viloyatni ishg'ol etadi. Bu yerdan turib Olimxon qishning o'rtalarida qo'shinini Sayram va Chimkentga, chekingan toshkentliklar qo'shiniga qarshi yuboradi. Ob-havo qiyinchiliklari, qishning sovuq kelishi hamda Olimxon qahri va zulmidan to'ygan qo'shin boshliqlari va xon dushmanlari uning ukasi Umarxonni Olimxonga qarshi gij-gijladilar. Umarxon fitnachilar boshliq qo'shin bilan akasini tashlab, Qo'qonga qaytdi va xonlik taxtiga o'tirdi [13]. Olimxon Toshkentda qolgan yaqinlari bilan Qo'qonga qaytayotganda Umarxon va Toshkent zodagonlaridan topshiriq olgan amaldor yasovullar va ayg'oqchi-qorovullar ta'qibi natijasida Olti qush (Dang'ara atrofidagi qishloq) degan mavzeda qurshovda qoladi va Kambar mirzo ismli amaldor otgan o'qdan halok bo'ladi [14].

Olimxon o'limidan so'ng (hijriy 1225, muharramning birinchi kuni, milodiy 1810-yil oltinchi fevral) Qo'qon taxtiga Umarxon ibn Muhammad Abdulhamid (Norbotir, Norbo'taxon) Bahodir o'tirdi [15]. Aytish mumkinki, Umarxon

hukmronlik qilgan yillarda mamlakat mintaqadagi siyosiy jarayonlar bilan birga qo'shni davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarda ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Umarxonning hokimiyatni egallashi zodagonlarning qayta hokimiyatga kelishi hamda diniy ulamolarning davlat va siyosat ishlariga aralashuviga olib keldi [16]. Bu davrda Samarqandga Yusuf mingboshi rahbarligidagi qo'shin yuborilib, bu viloyat hududlari talon-taroj etiladi [17]. Bu holatda O'ratepa hududi bahsli zona sifatida Buxoro bilan o'zaro tortishuvlar maydoniga aylandi.

1813-yili qo'qonliklar yana O'ratepani bosib olishadi. O'ratepaning yuz urug'i ulug'lari va Xo'ja Ahror urug'i vakillari faxriy asirlar sifatida Farg'onaga ko'chirildi. Shu tarzda 1815-yilgacha Qo'qon O'ratepani o'z qo'lida ushlab turadi [18]. Bu urushlardan faqatgina oddiy xalq azob chekardi, xolos.

1815-yili Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Turkiston, 1817-yili esa O'ratepa qaytadan bosib olinadi. Sirdaryo bo'ylaridagi qozoqlardan bosib olingan yerlarda Yangiqo'rg'on, Julak, Qamishqo'rg'on, Oqmachit, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar barpo etiladi. Bu yerlar Xiva, Buxoro, Toshkent shaharlarini Orenburg orqali Rossiya bilan bog'laydigan muhim savdo yo'llari ustida joylashgan edi [19]. Voqealarning bu holatda davom etishining sababi amirlik bu paytda Xiva xonligi bilan ham dushmanlik munosabatida bo'lib, Qo'qonning zafarli yurishlariga to'siq bo'lmaganligidir.

1821-yili Umarxon Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan kelishib, Miyonqolda Buxoro amiriga qarshi ko'tarilgan xitoy-qipchoqlar isyonidan foydalanib, amirlik hududiga hujum qildi. Qo'qon qo'shini Samarqandni yetti kun qamalda ushlab turishga muvaffaq bo'ldi. Biroq yozning jazirama issig'i ushbu yurishni to'xtatishga sabab bo'ldi [20].

Tarixdan ma'lumki, Muhammadalixon xonlikni Buxoro amirligi hududining bir qismi hisobiga kengaytirishga harakat qilgan va Janubiy Oltoy tog'i etaklaridagi tojiklarni bo'ysundirgan. Buning natijasida "1833–1834-yillari Qorategin bekligi butunlay tobe, Darvoz, Shug'on, Roshan, Vohan esa nomigagina zabt etildi" [21]. Xonlikni Ko'lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Maschoh beklari tan oladilar. 1840-yili Qo'qon qo'shini Qorateginni tark etdi. 1920–1930-yillarida qirg'izlar yashaydigan yerlarga muvaffaqiyatli yurishlar uyushtirilib, xonlik hududiga qo'shib olinadi. Shimolda Sirdaryo sohillari bo'ylab qal'a va istehkomlar, jumladan, Oqmachit, Turkiston, Qumqo'rg'on, 1825-yili Pishpak, To'qmoq, 1832-yili Kurtka va boshqa istehkomlar qurildi [22]. 1830–1840-yillari O'ratepa yana Qo'qon xonligi qo'lga o'tadi. Buxoro, Qo'qon va yuzlarning O'ratepa hududi uchun doimiy kurashlari uning hududini muntazam urush o'chog'iga va harbiy to'qnashuvlar maydoniga aylantirib qo'ydi.

Ta'kidlash lozimki, xonning zafarli yurishlari va bunda hukmron tabaqa bilan hisoblashmaganligi oqibatida Qo'qon xonligi siyosiy hayotida keskinlik yuzaga keldi. Qo'qonliklar xonni obro'sizlantirish uchun turli uydirmalarni o'ylab topishgan. Jumladan, tarixchi Muhammadhakimxon To'raning eslashicha, 1838–1839-yillarning bir kuni uning uyida Sulton Mahmudxon va Xo'jaquli parvonachilar mehmon bo'lib turgan paytda Sulton Mahmudxonning bir xizmatchisi Xo'jand tomondan kelib qoladi va Muhammadalixon ayni kunlarda juda oliy va zo'r bir to'y berib turganligi, ... o'gay onasidan bir o'g'illi bo'lib, ul

maqto bolaning otini Bahromxon qo'yganligi xabarini yetkazadi. Shunda o'tirganlarning barchasini jahli chiqib, ertasi kuni "Eshoni Shofeiyy" nomi bilan tanilgan mavlono Darvesh eshon huzuriga borishadi. Eshon: – "“Niso” surasining to'rtinchi porasining oxirida Alloh taolo "Otalaringiz uylangan xotinlarni nikohingizga olmang! Agar [ushbu oyat nozilidan] ilgari uylangan bo'lsangiz, Alloh afv etar. Albatta bu jirkanch va dushmanlik va yomon ishlardandir [23]", – deb bu buzqlikdan qaytarganligini aytadi. Voqealar rivoji shu tarzda rivojlanib, oxir-oqibat Buxoro amiri Qo'qon xoniga nisbatan urush e'lon qilishga majbur bo'lgan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Qo'qonga Muhammadalixon huzuriga elchi orqali ushbu mazmundagi maktub jo'natadi: "Eshitishimizcha, Siz o'z otangizning bevasini halol bilib, nikohingizga olibsiz. Bu qaysi dalil asosida amalga oshdi? Chunki Buxoro ulamolari qanchalik kitob ko'rib, masalani o'rganishmasin, bunday uylanishning mumkinligini bila olishmadi. Sizga ma'lum bo'lsa, o'sha masalani bizga yozib yuborsangiz, tokim, shu tufayli xalq yanglish nazarlardan qutulsa" [24]. Elchi Qo'qonga kelib, maktubni Muhammadalixonga topshirgan vaqtda, afsuski, xon darhol elchini ushlab, uning mol-mulkini talon-taroj qilishni amr etib, Buxoro tomonga yurish qiladi.

O'sha paytlar amir Do'st Muhammad Buxorodan qochib, Shahrisabzga kelgan va u yerdan Doniyol otaliqning yordami bilan Xulmga o'tib ketgan paytlar edi. Amir Nasrullo Shahrisabz begi Doniyol otaliqdan jahli chiqib, Shahrisabzga yurish qilmoqchi bo'lib turgan vaqtda qo'qonliklarnig bostirib kelayotganligi haqidagi xabarni eshitadi va "Doniyol otaliqqa ko'ngilni xushlaydigan muloyim so'zlar aytib, hurmatli kishilarini elchi qilib yuboradi, o'zi esa darhol Muhammadalixon tomonga lashkarini boshlab ketadi" [25].

1840-yili Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi Xo'jandda bo'lib o'tgan to'qnashuvda Muhammadalixon mag'lubiyatga uchraydi. Niyoz Muhammad Xo'qandiyning qayd etishicha, Muhammadalixon Xo'janddan qochib, Toshqo'rg'onga yetganida Buxoro elchisi xonning oldiga kelib shunday deydi: "Ey xon, qayerga bormoqchisiz? Qayerga borsangiz ham amir bilan jang qilishingiz kerak bo'ladi. Hali ham vaqtni g'animat bilib, borib amir bilan uchrashing. Viloyatni o'zingizga qaytarib beradi, mehribonchilik va lutf ila sizni qaytaradi" [26]. Ammo Amir Nasrullo elchiga: "agar eplasang Muhammadalixonning o'g'lini va qushbegisi, ya'ni vazirini o'zing bilan olib kel. Yaxshisi sulhni o'shalar bilan tuzaman", – deb topshiriq beradi [27]. Natijada Muhammadalixon o'z o'g'li Muhammadaminxonni katta tortiq va hadyalar bilan amir huzuriga yuborib, Xo'jandni Amir Nasrulloga topshirishga hamda o'zini uning noibi deb tan olishga majbur bo'ladi. Muhammadhakimxonning ta'rificha: "... Amir Nasrullo Xo'jand yorlig'ini xos sarupo va o'zining xos jabduqli oti bilan birga qo'shib, Sulton Mahmudxonga yuborib, Xo'jand viloyati hukumatini unga topshirdi. O'zi esa Xo'janddan ko'chib, O'ratepaga borib qo'sh tashladi va O'ratepa hokimligini Berdiyori eshik og'oboshiga topshirdi. Shundan so'ng o'zi Buxoroga qaytdi" [28]. Ammo bundan keyin ham ikki o'rtadagi munosabatlarda keskinlik saqlanib qolgan. Saroy va xon atrofidagi amaldorlar turli fitnalarga qo'l urishgan. Jumladan, Haqqulibek boshchiligidagi bir guruh amirlik hududiga qarashli O'ratepa va

Xo'jand viloyatlariga hokim bo'lib turgan xonning ukasi Sulton Mahmud bilan til birlashtirib, taxtni egallamoqchi bo'lishadi [29]. Bundan xabar topgan Muhammadalixon Haqqulibekni qatl qiladi [30]. "Muntaxab at-tavorix"da yozilishicha, amir Buxoroga qaytgach, Muhammadalixon ukasi Sulton Mahmudxon huzuriga odam jo'natib, o'ziga ittifoqchi qilishga erishadi va Toshkent hukmronligini beradi. "Ul soddadil uka mug'ombir akasining so'ziga uchib, ... og'ir kunda qo'llab-quvvatlagan Amir Nasrullodan tezda va osonlikcha yuz o'girib, firibgar akasiga qo'shiladi" [31]. "Ibrat ul-xavoqinda" Muhammadalixonning onasi (Mohlaroyim) Xo'jandga kelib aka-ukani yarashtirganligi, xon Toshkentni Sulton Mahmudxonga berib, Xo'jandni undan olganligi, Sulton Mahmudxon Toshkentga ketib, Xo'jandni Muhammadalixonga topshirgani qayd etiladi [32]. Buning natijasida O'ratepa va Xo'jand yerlari Qo'qonga qo'shib olinadi. Amir Nasrullo esa Muhammadalixon ustiga yurish boshlaydi.

Muhammadalixon hukmronligining so'nggi yillarida Qo'qon xonligining ichki ahvoli og'irlashdi. Qo'qon hududidagi qirg'iz va qipchoq yetakchilari bir tomondan, ayrim mahalliy amaldorlar ikkinchi tomondan o'zaro qarshilik va dushmanlikni boshlab yuborishdi. Toshkentning ashrafzoda diniy ulamolari va ulug'lari, muhojirlikda yurgan turli ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi guruhlar vakillari (Muhammadhakimxon boshchiligidagi) markaziy hukumatni qo'lga olish uchun kurashni kuchaytiradi. Saroy va xon atrofidagi mansabdor shaxslar ham ba'zan ig'volarga qo'l urib turishardi. Ushbu ichki kelishmovchilik va qarama-qarshiliklardan foydalangan Amir Nasrullo xonlikni egallash harakatiga tushadi [33].

Natijada 1842-yili 12-may kuni Buxoro amiri Nasrullo harbiy yurish qilib, Qo'qon shahrini egallaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, aslida bu yurishni turli guruhlarining ichki siyosiy ziddiyatlari yuzaga keltirgan edi. Manbalarda shunday "guruhlardan biri –Shahrisabzdagi qo'qonlik muhojirlar va Toshkent a'yonlari birlashgach, hamma vositalardan foydalangan bo'lsalar ham o'z dushmanlarini yo'q qilish maqsadlariga erisha olmay, Amir Nasrullodan ko'mak so'rashdi", – deb qayd etiladi [34]. Muhojirlikda bo'lgan Qo'qon xonlari avlodidan bo'lgan Hakimxon to'ra ibn Ma'sumxon shayx al-islom bu yurish tashkilotchilaridan biri edi [35].

Farg'ona vodiysini talon-taroj qilgan Buxoro qo'shini Qo'qonni bosib oladi. Bu holatni Niyoz Muhammad Xo'qandiy shunday tasvirlaydi: "... shahar mahallalarini shunday taladilarki, uy-joy va xonalarda bo'yra naqshidan va o'rgimchak tolasidan boshqa narsa qolmadi" [36]. Amirning buyrug'iga binoan Qo'qon hukmdori Muhammadalixon hamda uning qarindoshlari - ukasi Sulton Muhammad, onasi Mohlaroyim (shoira Nodira), o'g'li xonzoda Muhammadaminxonlar o'ldirildi [37]. Voqealarning bunday tus olishi xonlikdagi oddiy aholining ham noroziligini kuchaytirdi va xalq qo'zg'olonlari ko'tarildi.

Aleksandr Borns 1842-yilgi yurish haqida yozarkan, Amir Nasrullo aholisi musulmon-sunniylar bo'lgan Qo'qon shahrini "qo'shiniga kechgacha talashga ruxsat berdi. Askarlar amirning saxiyligidan qunt bilan foydalandilar. Ular aholini

taladilar, barcha uylarni ostin-ustin qildilar. ... Mullalar va diniy ulamolarning kitoblari va mulklarini tortib oldilar-deb qayd etgan” [38].

Muhammadhakimxonning ta’kidlashicha: Amir Nasrullo Qo’qonda “o’n ikki kun ... istiqomat qilib, ... manqit Ibrohim dodxoh bangining boshini ul viloyat hukumatini berish bilan balandu sarafroz qildi. Toshkand viloyati hokimligini Muhammadsharif otaliqqa berdi va uni parvonachi ham qildi. Xo’jandni Tilov Qobilbiyga in’om qildi. Turkiston deb ataluvchi Yassini Nurmuhammadbiyga berdi. Marg’inonni Ibrohim dodxohning ukasi Karimqulibekka berdi. Namangon va To’raqo’rg’onni Omonullohxo’ja sudurga in’om qildi. Chustni o’zining nadimlardan birining qo’liga topshirdi va hakoza” [39]. O’zi esa xonlikdagi ko’plab hunarmand kosiblar, ustalarni majburan, sayyid, ulamo va amirlarini oq uylik [40] qilib Buxoroga ko’chirib ketadi. Ko’plab xotin-qizlar ham o’z oilasidan judo qilinib, o’lja sifatida Buxoroga olib ketiladi.

«Ibrohim Xayol» laqabi bilan tanilgan bu bangi parvonachi Mullo Qurbon miroxur, Muhammadsharif miroxur va Gadoybiylar bilan kelishib, o’zining ikki oy hukmronligi davrida aholi boshiga yangi-yangi soliqlar solib, Farg’ona xalqining boshiga nihoyatda og’ir kunlarni soladi. Ibrohim dodxoh “bekamu ko’st oltmish kun Xo’qand viloyatida hukmronlik qilgandi. Xotin va bola-chaqa, xazina va ganjinasini tashlab, o’zining bir nechta yaqin mahrami va o’sha paytda yordamga kelgan Xo’jand hokimi Tilov Qobilbekni yoniga solgan ko’yi qochish sari yuzlandi hamda necha bir qiyinchilikda Xo’jand shahriga yetib oldi. Ikki oy, o’n yetti kundan keyin Qo’qon aholisi qipchoq va qirg’iz urug’lari kuchlari bilan birga mang’it qabilalarini Qo’qon xonligidan haydab chiqarib, taxtga Sheralixonni ko’taradilar” [41]. Darhaqiqat, Sheralixonni hokimiyatni egallashini oddiy xalq xursandchilik bilan kutib olgan.

“Anjum at-tavorix”da ta’kidlanishicha, Sheralixon boshchiligidagi yangi davlat tuzilgan kundan boshlab, qaysi bir hudud, qaysi bir shaharda Buxoro amaldorlari, hokimlari va sipohiylari bo’lsa, raiyat va aholi ularni qo’lga olib, markaziy hokimiyatga, Sheralixon huzuriga o’zlarining a’yonlari va ulug’lari orqali jo’natganlar. Buxoro ulug’lari va sipohiylaridan ko’plari xonlik buxoroliklar tomonidan zabt etilib, olib ketilgan qo’qonliklar bilan almashib olgunlariga qadar garov sifatida zindonga tashlangan [42].

Sheralixon Amir Nasrulloning yurish qilishini bilgan holda qabila va harbiy boshliqlar, aminlar, oqsoqollar hamda nufuzli arboblar kengashini chaqirgan. Unda shoshilinch ravishda dushmanga qarshi kurashish uchun rejalar ishlab chiqildi. Jumladan, “... aholiga miltiq olish uchun o’lov puli solig’i solinib, Qo’qon atrofi to’siq va qo’rg’onlar bilan to’sila boshlanadi. Qurilish oxiriga yetmasdan buxoroliklar ko’p sonli qo’shin bilan Qo’qonga yetib keladi” [43].

Shahrisabz yurishiga tayyorgarlik ko’rayotgan Amir Nasrullo voqeadan xabar topib, avval Ibrohim dodxohning ukasi Samarqand hokimi Isobiy, Jizzax hokimi Odil dodxoh, Urgut hokimi Abdurahmon mitan, O’ratepa hokimi Berdiyornlarni Xo’jandga yuboradi. Bir haftadan keyin esa o’zi ham Xo’jand shahriga yetib keladi [44]. Bu yurishda toshkentliklar ham buxoroliklarni qo’llab-quvvatlab, ular bilan birlashib harakat qilishgan.

Buxorolik va qo‘qonliklar o‘rtasida 40 kunga yaqin janglar davom etib, bu janglar ko‘plab odamlarning umriga zomin bo‘ldi. Amir Nasrullo Qo‘qonni bosib olib yondirib, shaharga o‘t qo‘ygan. Uning qo‘shini Qo‘qon atrofidagi qishloqlarni vayron qilsa hamki, barcha urinishlari kutilgan natijalarni bermaydi. Mudofaada ayollar ham faol ishtirok etadilar. “Ansob as-salotin va tavorix al-xavoqin”da tavsiflanishicha, Buxoro elchisining Qo‘qonga kelishi, uning sharafiga to‘pchiboshi Kovusbek urushni vaqtinchalik to‘xtatish uchun katta to‘pdan o‘q uzgani, amir elchisining Dahbed xo‘jalaridan va yaxshi inson ekanligi, hurmat bilan kutib olinganligi, lekin elchi Sheralixonga ko‘rsatilib, uning biror narsa deyishiga yo‘l qo‘ymay shahar tashqarisiga kuzatib qo‘yilganligi haqida ma’lumot keltiriladi [45]. Elchi o‘z yurtiga qaytgach, qo‘qonliklarni osonlikcha yengib bo‘lmasligini, butun aholi xonlik himoyasida ishtirok etayotganini ma’lum qilgan.

Buxoroliklarning Qo‘qonni qaytarib olish uchun qilgan 40 kunga yaqin qamali samarasiz ketadi. “Xuddi shu vaqtda Xiva xonining Buxoro amirligiga qilgan hujumi amirning Farg‘onadan qaytishga majbur qiladi” [46]. Oradan ko‘p o‘tmasdan qo‘qonliklar Toshkent atrofi hamda hozirgi Janubiy Qozog‘iston yerlarini ham qaytarib olgan.

Bu haqida “Muntaxab at-tavorix”da Sheralixon o‘g‘li Abdurahmonni amiri lashkar qilib, u bilan birga Farg‘onaning barcha qo‘shinini Toshkentni bosib olish uchun yuborgani qisqacha bayon qilingan. Xususan, “qo‘shin Sirdaryodan o‘tib, Quramaga kelganda Xo‘jand hokimi Xudoyorbiy Amir Nasrulloga xoinlik qiladi va Sheralixonning hokimiyatini tan oladi. Qo‘qon xoni buning uchun unga oldingi lavozimi – Xo‘jand hokimligini tortiq qiladi” [47].

Ta’kidlash lozimki, Sheralixonni taxtga o‘tqazgan qirg‘iz-qipchoq jamoasi rahbarlik mansablarini qo‘lga kiritganlar. “1842-yilning kuz oyida Talas qirg‘izlarining boshlig‘i Muhammadyusuf Sheralixonni Safed bulan degan mavzeda xon ko‘tarib, o‘zi mingboshi bo‘lib oladi. Lekin buxoroliklarni xonlik hududidan haydagan qipchoqlarga yuqori mansablar tegmay qoladi. Muhammadyusuf vaziyatdan foydalangan holda ularga qarshi harakat boshlaydi” [48]. Ushbu voqeadan xabar topgan qipchoqlar Andijon va Shahrixon taraflarga borib, qo‘shin to‘playdi. Sheralixonning to‘ng‘ich o‘g‘li Abdurahmon (Sarimsoq)bek va Yusuf mingboshi qipchoqlar oldiga muzokara uchun yuboriladi. Manbada qayd etilishicha, qipchoqlarning talabi bilan “Yusuf mingboshini vazirlik mansabidan bo‘shatib, Marg‘inon sardorligi bilan boshini baland ko‘tardilar. Mingboshining sobiq o‘rniga esa ul shumoyoq Kali Shodiy o‘tirib, o‘lka aro saltanat vazirligi bayrog‘ini hilpiratdi” [49]. Kali Shodiy “qayerda chaqqon kishi va tadbirkor hokim va dono maslahatli aqlli odamlar bo‘lsa, o‘shalarni mansabidan bo‘shatib, o‘rniga aqlsiz, kalabin va bebosh avboshlarni boshliq qilib tikladi. Ana shundaylardan bittasi Karimqul mehtar bo‘lib, kal uni Andijonga hokim qildi... Musulmonqulini esa unga bahodirboshi qildi, ... Musulmonquli davlat va hukumat samandiga mindi va jabr-u zulm qamchisini o‘ng qo‘liga oldi” [50].

Sheralixon hukmronligi yillari ham xalqning ahvoli yaxshilanmaydi. Aholidan og‘ir soliqlar yig‘ilishi natijasida xonlikning qator tumanlarida qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi. Sheralixon hokimiyatni mustaqil boshqarishga intiladi. Bundan norozi bo‘lgan Musulmonqul mingboshi esa Sheralixondan qutulib, uning o‘rniga boshqa

xon ko'tarish payiga tushadi. O'sh shahrida qo'zg'olon tayyorlanayotganligidan xabar topgan mingboshi bundan foydalanmoqchi bo'ladi [51].

Bizga ma'lumki, Toshkent Amir Nasrulloning 1842-yilgi Qo'qonga qarshi yurishidan so'ng amirlik tarkibiga qo'shib olingan edi. 1842–1843-yillarda Toshkentda amirning noibi Muhammad Sharif otaliq hokimlik qilgan. 1843-yili Toshkent Sheralixonning o'g'li Salimsoqxon boshchiligidagi Qo'qon qo'shini tomonidan olinib, Salimsoqxon Toshkentning yangi hokimi etib tayinlanadi. U otasining hokimiyati xonlik hududida hali mustahkam emasligi sababli asosiy vaqtini Toshkentda o'tkazib, boshqaruv ishlari bilan shug'ullana olmagan. Salimsoqxon otasi Sheralixonga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirish bilan band bo'lgan. Shuning uchun 1843–1844-yillar davomida uning nomidan Muhammad Karim kalla Marg'iloniy yasovul va Mustafouqulixonlar Salimsoqxonning o'rinbosarlari sifatida Toshkentda hokimlik qilib turgan [52].

Salimsoqxon Buxoro tasarrufiga o'tgan Qo'qon xonligi yerlarini qaytarib olishda jonbozlik ko'rsatgan shaxslardan biri bo'lsa-da, Amir Nasrullo uchun uni xonlik hududidan siqib chiqarib, Sheralixonni taxtga o'tqazgan siyosiy kuchlar yetakchisi Musulmonqul mingboshiga qarshi tura oladigan siyosiy kuch zarur edi. Amir Nasrullo, o'z navbatida, Salimsoqxonni qo'llab-quvvatlash orqali ikki tomonning ham zaiflashuvidan manfaatdor bo'lgan. “Ansob as-salotin va tavorix al-xavoqin” asarida Salimsoqxonning Buxoroga, amir huzuriga kelgani, amir unga g'amxo'rlik qilib, faxriy sarpo berib, Chordaraga hokim qilib tayinlagani qayd etilgan [53].

“Tarixi jadidayi Toshkand” asarida Amir Nasrulloning Salimsoqxon bilan qandaydir manfaatli aloqasi bo'lganligi, aks holda Rajabbek inoq qushbegi boshchiligidagi taxminan 2000 Buxoro navkari Salimsoqxonga madad sifatida yetib kelmasligi qayd etiladi [54].

Mirzo Olim Maxdum hoji o'zining “Tarixi Turkiston” asarida Salimsoqxon Toshkentda Buxoro amirining nomidan hokimlik qilganligini yozadi [55]. Toshkent qamali vaqtida Rajabbek inoq qushbegi boshchiligidagi Buxoro qo'shinining yordamga kelishi ham ushbu fikrni go'yo tasdiqlagandek. Lekin Salimsoqxonning Toshkentdagi mustaqil hokimligi davrida olib borgan siyosati uning kelgusida Toshkentdan turib, asta-sekin Qo'qon xonligi hududini qaytarib olish yo'li bilan hokimiyatni egallamoqchi bo'lganligidan dalolat beradi [56]. Aslida Amir Nasrullo Salimsoqxon va Musulmonqul mingboshi o'rtasidagi o'zaro to'qnashuvlardan manfaatdor edi.

Amir Nasrullo va Musulmonqul mingboshi o'rtasidagi keyingi to'qnashuv Xo'jand himoyasi vaqtida yuz beradi. Shunda Musulmonqul Xo'jandni Buxoro qo'shinidan himoya qiladi. U harbiy hiyla sifatida Buxoro qo'shini o'rtasida mish-mish tarqatib, yolg'on gaplar bilan to'ldirilgan qalbaki xatlar orqali ularning yuragiga vahima solishga erishgan. Musulmonqul Jigda qishlog'ida harbiy yig'in o'tkazib, Buxoro amiri Nasrulloga maxsus maktub jo'natadi. Amir Nasrullo maktub bilan tanishadi va uning mazmuni amirga yoqadi. Maktubni olib kelgan elchiga faxriy sarpo berib, o'zi Buxoroga qaytadi [57]. Musulmonqulning diplomatik mahorati va ushbu maktub sabab ikki o'rtadagi to'qnashuvning oldi olinadi.

XULOSA

Ashtarxoniylar hukmronligining so'nggi davrida siyosiy boshboshdoqlik va o'zaro urushlardan foydalanib, Farg'ona vodiysi hududlarida yana bir yangi davlat Qo'qon xonligi tashkil topdi. Mang'itlarning hokimiyatga kelishi bilan vaziyat yanada keskinlashdi. Farg'ona vodiysini o'zining azaliy yerlari deb hisoblagan amirlik vakillari hududga da'vo qila boshladi. O'z navbatida Muhammadalixon xonlikni Buxoro amirligi hududining bir qismi hisobiga kengaytirishga harakat qildi va Janubiy Oloy tog'i etaklaridagi tojiklarni bo'ysundirdi. 1830–1840-yillari O'ratepa yana Qo'qon xonligi qo'liga o'tadi. Buxoro, Qo'qon va yuz urug'larning O'ratepa hududi uchun doimiy kurashlari uning hududini muntazam urush o'chog'iga va harbiy to'qnashuvlar maydoniga aylantirdi.

Muhammadalixon hukmronligi davrining oxirgi yillarida Qo'qon xonligining ichki ahvoli og'irlashdi. Qo'qon hududiga qo'shilgan qirg'iz va qipchoq yetakchilari bir tomondan, ayrim mahalliy amaldorlar va a'yonlar ikkinchi tomondan o'zaro qarshilik va dushmanlikni boshlab yuborishdi. Ushbu ichki kelishmovchilik va qarama-qarshiliklardan foydalangan Amir Nasrullo xonlikni egallash harakatiga tushadi. Natijada 1842-yili 12-may kuni Buxoro amiri Nasrullo harbiy yurish qilib, Qo'qon shahrini egallaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, aslida bu yurishni turli guruhlarining ichki siyosiy ziddiyatlari yuzaga keltirgan edi. Ushbu ziddiyatlar ancha vaqt saqlanib qolganini ta'kidlash joiz.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlar ziddiyatli kechganligini ko'rish mumkin. Bunda amirlik Farg'ona vodiysi yerlarini o'zining ajralmas hududi sifatida bilib, o'z ta'sir doirasida ushlab turishga harakat qilgan bo'lsa, Qo'qon xonligi o'zini mustaqil davlat deb hisoblagan holda tashqi siyosat olib borgan. Afsuski, bu holat ruslar bosqini davrida ham saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. 1913-1914. – Пг.: Типография Императорской Академии наук, 1915. Том XXII. – С. 303-320; Его же. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII столетия // Протоколы Туркестанского кружка любителей археологии. Вып.2. – Ташкент, 1916. – С. 68-86; Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 200 с.; Воҳидов Ш. Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент. 2014. – 1492 б.

2. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити (сиёсий жарёнлар) / Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент. 2014. – Б. 10.

3. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 13; Валидов А.З. Некоторые данные по истории Ферганы XVIII столетия. ... – С. 86.

4. Муҳаммадҳақимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих. / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2010. – Б. 22-23.
5. Муҳаммадҳақимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 34-36
6. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари) / Форс-тожик тилидан ўзбек тилига таржимон ва изоҳлар муаллифи: тарих фанлари доктори Шодмон Воҳидов. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – Б. 154.
7. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия / Рецензенты: Хисао Коматцу, С.У. Каримова, Н.И. Тошев. – Токио – Ташкент, 2010. – С. 116.
8. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 15.
9. Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в. / Под ред. Б.И. Искандарова. – Душанбе: Изд-во АН Тадж.ССР, 1964. – С. 24-25.
10. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. – Казан: Тип. Императорского университета, 1886. – С. 79-83; Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 14.
11. Муҳаммадҳақимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 283-287.
12. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 16.
13. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити ... – Б.10.
14. Муҳаммадҳақимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 334.
15. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити ... – Б. 10
16. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 17.
17. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити ... – Б. 10.
18. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 18.
19. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари) / Форс-тожик тилидан ўзбек тилига таржимон ва изоҳлар муаллифи: тарих фанлари доктори Ш.Воҳидов. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – Б. 311.
20. Бейсембиев Т.К. «Та'рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 19.
21. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих ... – Б. 312.
22. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик ... – Б. 15.
23. Қуръони карим. – 4:26.
24. Муҳаммадҳақимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 156.
25. Муҳаммадҳақимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 156-157.
26. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул – хавоқин. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – Б. 144.

27. Бухоро сафарномаси (Амир Насруллоҳ ва Муҳаммадшоҳ Кожор ўртасидаги дипломатик муносабатларга доир. 1844-йил.) / Форсчадан таржима ва изоҳлар муаллифи: И. Бекжон. – Тошкент. 2007. – Б. 84.
28. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 167.
29. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик ... – Б. 16.
30. Мирза Алим ибн Мирза Раҳим Тошканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хавакин / Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент, 2014. – Б. 1223 б.
31. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 168.
32. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул – хавоқин ... – Б. 145.
33. Воҳидов Ш. Қўқон тарихнавислик мактаби шаклланишининг тарихий шароити ... – Б. 11.
34. Авазмуҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамои / Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент, 2014. – Б. 708; Бейсембиев Т.К. «Та’рих-и Шахрухи» как исторический источник ... – С. 20; Мухтаров А.М. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX веке. ... – С. 31-33; Плоских В.М. Киргизы и Кокандское ханство. – Фрунзе: Илим, 1977. – С. 138-140.
35. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 155-156.
36. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул – хавоқин ... – Б. 452.
37. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул – хавоқин ... – Б. 146.
38. Борнс Александр. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря до Лагора с подарками великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию. / издание П. В. Голубкова, действительный член Русского Географического общества; [перевел с английской Георг Мин]. – М.: Университетская типография. Т. 1. 1848. – С. 468.
39. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 192.
40. Oq uylik – garovga olinib, boshqa joyga olib ketilgandan so‘ng ularga hurmat ko‘rsatilgan. Ular ko‘pincha oq o‘tovlarda yashaganlari bois shunday deyilgan. Qora uyliklar esa asirga olingan, haq-huquqsiz dushman tomoni.
41. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул – хавоқин ... – Б. 147.
42. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих ... – Б. 306.
43. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих ... – Б. 313.
44. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 198-199.
45. Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин: «Султонлар насаби ва сулолалар тарихи» (Қўқон хонлиги тарихи) / Нашрга тайёрловчилар А.Матғозиев, М.Усмонова. Сўзбоши муаллифи А.Матғозиев. – Тошкент: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – Б. 26-27.
46. Огаҳий Муҳаммад Ризо Мироб Эрнийезбек ўғли. Риёзуд-давладан // Асарлар. 6 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 5-жилд: Тарихий асарлардан парчалар. – Б. 157-165.
47. Муҳаммадҳакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих ... – Б. 666-667.
48. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик ... – Б. 17.

49. Авазмуҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамойи / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш ва изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент, 2012. – Б. 737.
50. Авазмуҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамойи ... – Б. 73-739.
51. Худоевхонзода. Анжум ат-таворих ... – Б. 314.
52. Бейсембиев Т.К. Высшая администрация Ташкента и юга Казахстана в период Кокандского ханства: 1809 – 1865 гг. // Историко-культурные взаимосвязи Ирана и Дашти Кипчака в XIII – XVIII вв. Материалы международного круглого стола. – Алматы. – С. 291-313.
53. Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошканди. Ансаб ас-салатин. – С.1142.
54. Султонов Ў.А. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари (XIX аср). – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 95-96.
55. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон ... – Б. 113.
56. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик ... – Б. 23.
57. Мирза Алим ибн Мирза Рахим Тошканди. Ансаб ас-салатин ва таварих ал-хавакин ... – С.124.

Холикулов А. Б.

DSc., профессор кафедры «История Узбекистана»

Национальный университет Узбекистана

a.kholikulov@nuu.uz

СОТРУДНИЧЕСТВО БУХАРСКОГО ЭМИРАТА С КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе источников, а также трудов отечественных и зарубежных историков рассматриваются посольские отношения Бухарского эмирата с Кокандским ханством, существовавшие между ними противоречия, особенности бухаро-кокандских взаимоотношений в годы правления эмира Шахмурада и эмира Хайдара, проблема Уратюбе, походы эмира Насруллы против Кокандского ханства, причины их возникновения, а также поводы, послужившие толчком к началу военных действий.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Кокандское ханство, посольские отношения, Эмир Шахмурад, Эмир Хайдар, Эмир Насрулло, Эрданобий, Норбутабий, Алимхан, Умархан.

Kholikulov A. B.

DSc., professor at the department of «History of Uzbekistan»

National university of Uzbekistan

a.kholikulov@nuu.uz

COOPERATION BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKAND KHANATE

ABSTRACT

In this article, based on primary sources as well as the works of domestic and foreign historians, the diplomatic relations between the Bukhara Emirate and the Kokand Khanate are examined, along with the contradictions that existed between them, the specific features of Bukhara–Kokand relations during the reigns of Emir Shahmurad and Emir Haydar, the issue of Uratyube, the military campaigns of Emir Nasrullah against the Kokand Khanate, the reasons for their emergence, and the pretexts that served as triggers for the outbreak of hostilities.

Keywords: Bukhara Emirate, Kokand Khanate, diplomatic relations, Emir Shahmurad, Emir Haydar, Emir Nasrullo, Erdanabiy, Norbutabiy, Alim Khan, Umar Khan.